

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.06.2021.B.05.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**UMURZAQOVA XOSIYATXON SAYDALI QIZI**

**ANOR AGROTSENOZINING FITOFAGLAR FAUNASI,  
EKOLOGIYASI VA XO‘JALIK AHAMIYATI  
(Farg‘ona va Surxondaryo viloyatlari misolida)**

**03.00.06 – Zoologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Umurzaqova Xosiyatxon Saydali Qizi**

Anor agrotsenozining fitofaglar faunasi, ekologiyasi va xo‘jalik ahamiyati (Farg‘ona va Surxondaryo viloyatlari misolida) .....3

**Умурзакова Хосиятхон Сайдали кизи**

Фауна, экология и хозяйственное значение фитофагов гранатового агроценоза (на примере Ферганской и Сурхандарьинской областей).....23

**Umurzakova Xosiyatkxon Saydali Kizi**

Fauna, ecology and economic importance of phytophages of pomegranate agroecosis (on the example of Fergana and Surkhandarya regions) .....39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Spisok opublikovannykh rabot

List of published works ..... 43

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.06.2021.B.05.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**UMURZAQOVA XOSIYATXON SAYDALI QIZI**

**UMURZAQOVA XOSIYATXON SAYDALI QIZI  
ANOR AGROTSENOZINING FITOFAGLAR FAUNASI,  
EKOLOGIYASI VA XO‘JALIK AHAMIYATI  
(Farg‘ona va Surxondaryo viloyatlari misolida)**

**03.00.06 – Zoologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2025**

**Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/B1260 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.fdu.uz](http://www.fdu.uz)) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Zokirov Islomjon Ilxomjonovich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xurramov Alisher Shukurovich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Murodov Baqojon Egamberdiyevich**  
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.06.2021.B.05.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 22-fevral kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 712000, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. FarDU.Tel.: (+99873) 244-29-71, faks (+99873) 244-44-93, E-mail: [fardu\\_info@umail.uz](mailto:fardu_info@umail.uz)).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (452-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 712000, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy, Tel.: (+99873) 244-29-71.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 5-fevral kuni tarqatildi.  
(2025-yil 5-fevral dagi 20-raqamli reyestr bayonnomasi)



**F.R. Xolboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi o'rinbosari, b.f.d., professor

**B.M. Sheraliyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, b.f.f.d.

**A.K. Xusanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo miqyosida fitofag turlar populyatsiyalari kengayib borishi va mintaqalar bo‘ylab jadal tarqalishi bog‘dorchilik rivojlanishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, anor agrotsenozlarining xavfli zararkunanda fitofaglari yildan-yilga ortib, hosildorlikka ta‘siri kuchayib borayotganligi dunyo hamjamiyatini tashvishga solmoqda. Xususan, hozirgi kunda anor agrotsenozlariga jiddiy xavf solayotgan anor mevaxo‘ri (*Euzophera bigella* Zeller, 1848) 30 dan ortiq, karob kuyasi (*Ectomyelois ceratoniae* (Zeller, 1839)), anor shirasi (*Aphis punicae* Passerini, 1863) va oddiy o‘rgimchakkana (*Tetranychus urticae* Koch, 1836) anor yetishtiruvchi 50 dan ortiq davlatlarda, komstok qurti (*Pseudococcus comstocki* Kuwana, 1902) Yevropa, Osiyo va Shimoliy Amerika qit‘asining deyarli barcha qismlari egallab ulgurgan<sup>1</sup>. Shundan kelib, chiqib, anor agrotsenozlari fitofaglar faunasini aniqlash, ekologiyasini asoslash va zararli turlarga qarshi kurash usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda anorning yuqori hosilli va kasalliklarga chidamli navlarini yaratish, yangi agrotsenozlar barpo etish hamda zararkunanda fitofaglarga qarshi kurashga bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. So‘nggi yillarda dunyo bo‘ylab tarqalib borayotgan zararli organizmlarning mamlakatimizga kirib kelishi, bog‘dorchilikka iqtisodiy xavfi tadqiq etilila boshlangan. Natijada ularning iqtisodiy zarari ortib borayotganligi mahsulot sifati buzilishi va hosildorlik kamayishini baholash tizimi yaratilgan. Bu o‘rinda, anor agrotsenozlaridagi fitofaglar populyatsiyasining mavsumiy rivojlanish sur‘atlari aniqlash, dominant turlarning zararini baholash va muhim fitofaglarga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda aholining ehtiyoji va bozor talablaridan kelib chiqib, anor yetishtirish hajmi-yil sayin ortib bormoqda. Bu borada, jumladan, Farg‘ona viloyatida anor ekin maydonlari 20 ming gektar, Surxondaryo viloyatida esa 5 ming gektarda yetishtirish yo‘lga qo‘yilib, anorchilik klasterlari tashkil etildi. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 barobarga oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘shishini kamida 5 foizga yetkazish”<sup>2</sup> kabi vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, jumladan, Farg‘ona va Surxondaryo viloyatlarining anor yetishtiruvchi tumanlarida fitofaglar tur tarkibini tahlil etish, muhim dominant turlarning tarqalishi, zarari va bioekologik xususiyatlarini ochib berish hamda ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ilmiy ahamiyatga ega.

---

<sup>1</sup> <https://www.cabidigitallibrary.org/doi/10.1079/cabicompendium.45084>;  
<https://www.researchgate.net/publication/329844611>;  
<https://www.cabidigitallibrary.org/doi/full/10.1079/cabicompendium.35348>;  
<https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S1226861514001514>;  
<https://www.cabidigitallibrary.org/doi/full/10.1079/cabicompendium.53366>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 6-sentabrdagi “Qishloq xo‘jalik o‘simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o‘tlardan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni va uni amalga oshirishga oid qabul qilingan Davlat dasturlari, 2021-yil 15-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi o‘simliklar karantini va himoyasi agentligini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-5185-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 4-oktabrdagi “Farg‘ona viloyatida anor yetishtirishni ko‘paytirish va sohani rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 791-sonli qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Anor agrotsenozida uchrovchi zararli fitofaglarining tur tarkibi, tarqalishi, biologiyasi, zarar keltirish xususiyatlari va ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish bo‘yicha jahon olimlari G. Morland (2015), E. Ali (2017), R. Mkaouar va M. Ben Jamaa (2016), K. Abbas va b. (2020), A. Abd-Ella va b. (2022), H. Kawas va B. Basheer (2018), F. Khorrani va b. (2018), A. Latif va b. (2022), S. Pavhane va b. (2022), K. Umurzakova va Y. Kayumova (2020), M.Gülmez, AF. Çalışkan Keçe, M. Kaplan, MR Ulusoy (2022), F.Khorrani va b. (2018), I.Ksentini, T.Jardak, N. Zeghal, (2011), A.Kumar, S.Saha, J.Singh (2020), K.Shridevi, A. Vergeze (2007), M.R.Mehrnejad (2001) va boshqalar tomonidan tadqiqotlar o‘tkazilgan.

Anor agrotsenozlaridagi fitofaglarining faunistik tahlili, dominant turlar bioekologiyasi va zararli vakillarining tarqalishiga oid ma‘lumotlar MDH olimlari X.L.Aminov (1956), G.V.Dmitriyev (1959), R.L.Berg (1960), M.P.Bojko (1976), G.A.Arutyunyan (1979), A.G.Trusevich (1982), V.I.Piskunov (1981), V.P.Vasilyev, I.Z.Livshits (1984), D.A.Belov (2000), A.A.Korotkova (2002) va boshqalar tomonidan bayon etilgan.

Markaziy Osiyo miqyosidagi entomologik tadqiqotlarning tahlili N.S.Borxsenius (1957), V.V.Yaxontov (1962), M.N.Narzikulov (1962), A.N. Yelizarova (1964), B.B.Bazarov (1963), B.B.Bazarov, T.Babayev (1970), T.A. Krasilnikova (1973), B.P.Adashkevich (1987), V.N.Korchagin (1987), Sh.G.Allaxverdiyev (1991)lar tomonidan olib borilgan bo‘lib, mualliflar turli anor navlarida uchrovchi fitofag turlar tarkibini tuzish va zararli turlarga qarshi kurash borasida tadqiqotlar o‘tkazgan.

O‘zbekiston entomofaunasi A.G.Davletshina (1964), A.P.Barannik (1979), A.A.Muxamediyev (1979), M.X.Axmedov (1980, 1995), O.P.Kulkov (1986), M.M.Yunusov (1996), K.Zokirov (1971), M.U.Mansurxodjayeva (1999), Sh.T.Xo‘jaev, A.Jamalov, S.Mirzaeva (2007), B.Mamirzayev (2004), S.Mirzaeva (2010) va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Biroq, mazkur tadqiqot ishlari O‘zbekistonda amalga oshirilgan bo‘lishiga qaramay, respublikaning eng ko‘p anor plantatsiyalari tashkil etilgan Farg‘ona va Surxondaryo viloyatlari hududlaridagi anorzor fitofaglari haqida to‘liq ma‘lumot bera olmaydi. Shunga ko‘ra, Farg‘ona va Surxondaryo viloyatlarining anor agrotsenozlari fitofaglarini ekologik-faunistik tahlil qilish, dominant turlarning bioekologiyasini asoslash hamda zararli turlarga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Farg‘ona vodiysi o‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va bioxilma-xillikni saqlash muammolari” yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** anor agrotsenozlarida tarqalgan fitofagarning tur tarkibi, dominant turlarning bioekologiyasini asoslash, biotsenotik aloqalarini tahlil etish, ho‘jalik ahamiyatini baholash hamda zararkunanda turlarga qarshi ilmiy asoslangan kurash choralarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Farg‘ona va Surxundayo hududi anor agrotsenozlari fitofaglar faunasini tahlil etish;

anor agrotsenozi fitofaglari ekologiyasini tahlil etilish, dominantlarni belgilash, muhim turlar bioekologiyasi va agrotsenozlar bo‘ylab tarqalish xususiyatlarini ochib berish;

fitofaglarning o‘simliklar bilan biosenotik aloqalari hamda anor vegetatsiya davrlaridagi oziqlanish xususiyatlarini izohlash hamda ozuqa spektrini aniqlash;

fitofaglarning hayotiy shakllarini tadqiq etish va ekologik qonuniyatlarga muvofiqligini asoslash;

anor zararkunandalari miqdor zichligini boshqarish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish, tajriba maydonlarida sinovlar o‘tkazish;

anor agrotsenozlarining jiddiy zararkunandalariga qarshi kurash bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning ob‘ekti** sifatida Farg‘ona va Surxondaryo viloyatlari anor agrotsenozlari bo‘g‘imoyoqli fitofaglari – hasharotlar (Insecta) va o‘rgimchaksimonlar (Arachnoidea) tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** anor agrotsenozlarida tarqalgan fitofaglarning asosiy turlari, ularning bioekologiyasi va ho‘jalik ahamiyati tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotda entomologik, faunistik, taksonomik, morfologik, matematik-statistik usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

anor agrotsenozlarining fitofaunasi 5 turkum 15 oila 18 avlodga mansub 23 tur hasharotlar va 1 oila 2 avlodga kiruvchi o‘rgimchaksimonlardan iborat ekanligi hamda Nolidae oilasining *Arcyophora dentula* Lederer, 1869 turi Farg‘ona vodiysi entomofaunasida ilk marta aniqlangan;

dominant turlardan *Euzophera bigella*, *Ectomelois ceratoniae*, *Aphis punicae*, *Pseudococcus comstocki* va *Tetranychus urticae* anor agrotsenoziga jiddiy xavf soluvchi invaziv turlar ekanligi asoslangan;

fitofaglar hayotiy shakllari bo'yicha kavlovchi geobiont (1 tur); geobiont (2 tur), tamnobiont (2 tur), dendrotamnobiont (7 tur); mikrotamnobiont (1 tur); fakultativ xortobiont (5 tur), tamnobiont, xortobiont tipda (3 tur), ixtisoslashgan fitofil (2 tur) ekologik guruhlari ishlab chiqilgan;

anor agrotsenozi fitofaglarining yashash tarzi bo'yicha 7 turi (30.4%) ochiq, 8 turi (34.8%) yashirin va 8 turi (34.8%) aralash tipdagi yashash tarziga ega bo'lgan fitofaglar ekologik guruhlari aniqlangan;

fitofaglar ozuqa o'simliklariga trofik ixtisoslashuvi tahlil etilgan hamda anor o'simligi organlarini zararlash ixtisoslashuviga ko'ra ksilofag, kormofag, kladofag, rizofag, xlorofag, karpofag, antofag va golofag kabi guruhlarga mansubligi asoslangan;

anor agrotsenozida xavfli (4 tur, 17.4%), fakultativ xavfli (11 tur, 47,8%) va iqtisodiy zarari kam (8 tur, 34.8%) bo'lgan fitofag zararkunandalar kesimida populyatsiyaning mavsumiy rivojlanish sur'atlari va zarar keltirish darajalari ochib berilgan hamda ularga qarshi kurash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Farg'ona va Surxondaryo viloyatlari anor agrotsenozi fitofaglari tur tarkibi, tarqalishi, populyatsiyasining bir-biridan farq qilishi qiyosiy tahlil etilgan va shu asosda ularning asosiy sabablari sifatida geografik hududlarning joylashuvi, iqlimi, tabiati, suvi, tuprog'ining o'ziga xosligini aniqlash bo'yicha mezonlar ishlab chiqilgan;

Farg'ona va Surxondaryo viloyatlari sharoitlarida anor agrotsenozlari zararkunandalari miqdor zichligini boshqarish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ishda klassik entomologik va zamonaviy usullardan foydalanilganligi, ilmiy farazlar, anor bog'larida kuzatuv natijalarining nazariy ma'lumotlarga mosligi, ularning turli xalqaro va milliy ilmiy jurnallarda e'lon qilinganligi, zararli turlar miqdor zichligi suratlari hamda morfometrik belgilarning matematik-statistik uslublar asosida tahlil etilganligi, shuningdek, amaliy natijalarning vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi hamda amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Farg'ona va Surxondaryo viloyatlari anor agrotsenozlari fitofaglari inventarizatsiya qilinganligi, anor agrobiotsenozi entomofaunasining shakllanishi izohlanganligi, dominant turlarning biologiyasi, ekologiyasi va zarar keltirish xususiyatlari ochib berilganligi hamda turli iqlim sharoitlarida o'simlikda oziqlanish xususiyatlarini ekologik tahlil etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati anor agrotsenozidagi dominant turlar biologiyasi va hayotiy sikllari, zarar keltirish xususiyatlarini tadqiq etilishi, fitofaglar populyatsiya sur'atlarining o'zgarishlari, shuningdek, ularning o'simlikni zararlash darajasini aniqlanganligi, muhim dominant turlarga qarshi kurash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi.** Anor agrotsenozining fitofaglar faunasi, ekologiyasi va xo'jalik ahamiyati (Farg'ona va Surxondaryo viloyatlari misolida) bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Farg‘ona va Surxondaryo hududi anor agrotsenozlarida aniqlangan 25 tur fitofaglarining tarqalishi va populyatsiya dinamikasiga oid tavsiyalar mazkur viloyatlarning anor yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklari amaliyotiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 5-avgustdagi 05/06-02-606-son ma‘lumotnomasi). Natijada Farg‘ona va Surxondaryo viloyatlarining anor agrobiotsenozlarida fitofag zararkunandalar miqdorini hisobga olish, ularga keltiradigan zararini aniqlash hamda boshqa hududlarga tarqalishining oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini bergan;

anor agrobiotsenozidagi eng havfli zararkunanda turlar – anor kanasi (o‘rgimchakkana), anor shirasi (*Aphis punicae*), komstok qurti (*Pseudocaccus comstocki*) va anor mevaxo‘ri (*Euzophera bigella*) turlariga qarshi tashkiliy-xo‘jalik, agrotexnik va oldini olish ishlovlari bo‘yicha tadbirlar hamda biologik, mexanik va kimyoviy kurash usullari ishlab chiqilib, Farg‘ona viloyati anorchilik fermer xo‘jaliklari amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 5-avgustdagi 05/06-02-606-son ma‘lumotnomasi). Natijada “Quva anorchilik klasteri”ga qarashli anorzor bog‘larida 75-80%, “Farg‘ona anorchilik” MCHJda bog‘larida 81% gacha kamayishi va hosildorlik 19-23% ga ortishi, shuningdek, zararkunandalarning qo‘shni tumanlar va boshqa maydonlarga tarqalishining oldini olish imkonini bergan;

zararli fitofaglariga qarshi sinovdan o‘tkazilgan preparatlar (Agroplan Neo 20%, Saver 5%, Umayt Premium 72%) anorchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari amaliyotiga joriy qilingan (Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligining 2024-yil 24-avgustdagi 2-8/3607-son ma‘lumotnomasi). Natijada, “Quva anorchilik klasteri”, “Farg‘ona anorchilik” MCHJ va “Surxondaryo anorchilar uyushmasi” anor bog‘larida yuqori biologik samaradorlikka erishiilib, 2022-yilda 23 mln, 2023-yilda 55,1 mln so‘m miqdorda iqtisodiy foyda olish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari jami 4 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda hamda 1 ta monografiya nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan,

tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Anor agrotsenozi fitofaglarining o'rganilish holati**" deb nomlangan **birinchi bobi** "O'zbekistonda anor agrotsenozlarning tashkil etilishi", "Anor fitofaglari biologiyasi, ekologiyasi va zarar keltirish xususiyatlariga doir ilmiy manbalar sharhi", "Anor agrotsenozi zararkunandalariga qarshi kurashning hozirgi holati" kabi uchta paragrafdan iborat. Ularda Farg'ona va Surxondaryo viloyatlarida anorchilikning tashkil etilishi, anor fitofaglari biologiyasi va ekologik xususiyatlari hamda anor agrotsenozining zararkunandalari va ularga qarshi kurash borasida shu davrgacha olib borilgan tadqiqot ishlari natijalari, chop etilgan adabiyotlar va huquqiy-normativ hujjatlar tahlili keltirilgan.

O'rganilgan ilmiy adabiyotlarning barchasida har bir zararkunanda haqida qisqacha axborot berilib, unga qarshi klassik metodlarga asoslangan kurash tizimlari ko'rsatib berilgan. Vaqt o'tishi hamda kurash usullari va vositalarga nisbatan o'zgargan dunyoqarash oqibatida, bu tavsiyalar amalda o'z kuchini yo'qotgan. Bundan tashqari, iqlim o'zgarishi oqibatida har bir zararkunandaning biologik rivojlanish xususiyatlariga ham o'zgarish kirib, ahamiyatsiz bo'lib qolgan birini o'rniga ikkinchisini xo'jalik ahamiyati oshib borgan.

Yuqoridagilar asosida ta'kidlash mumkinki, horijiy mamlakatlar va respublikamizda anor zararkunandalarini o'rganishga oid tadqiqotlarning natijalari nisbatan cheklangan va keng qamrovli emas. Bu esa, respublikamizning anor yetishtiruvchi hududlaridagi fitofaglarni keng qamrovli tadqiq etish, turlarning bioekologiyasini o'rganish, trofik aloqalarini tahlil etish hamda zararkunanda turlarga qarshi ilmiy asoslangan kurash chora-tadbirlarini takomillashtirishga doir keng qamrovli tadqiqotlarni olib borishni taqozo etadi.

Dissertatsiyaning "**Anor fitofaglarini o'rganish uslublari va tadqiqot materiallari**" deb nomlangan **ikkinchi bobi** "Tadqiqot hududlarining tabiiy-geografik tavsifi", "Fitofaglarni yig'ish va turlarini aniqlash", "Fitofaglardan o'lcham olish va matematik-statistik tahlillarni amalga oshirish" kabi paragraflardan iborat.

Dissertatsiya ishiga Farg'ona va Surxondaryo viloyatlarining turli hududlarida anorzor bog'lar hamda axoli xo'jaliklarida o'stirilayotgan anor butalari va mevalaridan 2019-2024 yillar davomida yig'ilgan materiallar, olib borilgan tadqiqot va kuzatishlar natijalari asos bo'lgan. Dissertatsiya ishiga tadqiqot obekti sifatida bo'g'imoyoqlilar (o'rgimchaksimonlar va hasharotlar) olingan bo'lib, faunistik tahlillar, materiallar tahlili ushbu ikki guruh doirasida amalga oshirilgan.

Fitofoaglarining mavsumiy rivojlanishi, biologiyasi va ekologiyasini o'rganish bo'yicha amaliy tajribalar va kuzatuvlar Farg'ona viloyatidagi "Farg'ona anorchilik" agrofirmsida (umumiy maydoni 300 gektar) va "Quva anori" agroklastorida (umumiy maydoni 738 gektar), shuningdek, Surxondaryo viloyati Muzrabot, Sherobod, Sarosiyo va Denov tumanlarida joylashgan Anor yetishtiruvchilar assotsiatsiyasiga tegishli bog'larda (umumiy maydoni 7000 gektar) olib borilgan.

Tadqiqot davomida zoologik, entomologik, ekologik, morfologik va fenologik kuzatuv usullari qoʻllanildi. Fitofoagllarning sistematik oʻrnini aniqlash uchun turli ilmiy qoʻllanmalar va onlayn aniqlagichlardan foydalanildi. Populyatsiya zichligi, turlarning dominantligi va uchrash chastotasi K.K. Fasulati metodikasi asosida belgilandi, mavsumiy oʻzgarishlarning matematik tahlili esa tegishli formulalar yordamida amalga oshirildi.

Fitofoagllarning rivojlanishi, ularning biologik va ekologik xususiyatlari, shuningdek, hayotiy sikllari va zararli xususiyatlari boʻyicha kuzatuvlar Fargʻona viloyati Quva tumani hamda Surxondaryo viloyati Sherobod va Muzrabot tumanlaridagi doimiy kuzatuv maydonlarida olib borilib, natijalar qiyosiy tahlildan oʻtkazildi. Hasharotlarning fenologiyasi V.F. Paliy va B.V. Dobrovolskiy metodikasi asosida belgilandi.

Dissertatsiyaning “**Anor agrotsenozlari fitofagllarining faunistik tahlili**” deb nomlangan **uchinchi bobi** ikki boʻlimdan iborat boʻlib, anor agrotsenozlari fitofagllari faunasining taksonomik tarkibi hamda anor agrotsenozlari fitofagllar faunasining shakllanish xususiyatlariga oid tadqiqot natijalari bayon etilgan.

“Anor agrotsenozlari fitofagllari faunasining taksonomik tarkibi” nomli birinchi paragrafda Fargʻona va Surxondaryo hududi anor agrotsenozlaridan yigʻilgan namunalar asosida fitofagllar faunistik tahlil etilgan. Natijalarning koʻrsatishicha, anor fitofaunasini tashkil etuvchilar jami 23 tur boʻlib, shulardan Fargʻona viloyatida 23 tur Surxondaryoda esa 20 tur fitofagllar aniqlangan. Aniqlangan fitofagllar 5 turkum 15 oila 18 avlodga mansub hasharotlar va 1 oila 2 avlodga kiruvchi oʻrgimchaksimonlardan iborat boʻlib, ularning tur tarkibi tuzilgan.

### **Fargʻona vodiysi anor agrotsenozlari fitofagllarining tur tarkibi**

**TIP (Phylum): Boʻgʻimoyoqlilar tipi — Arthropoda Gravenhorst, 1843**

**SINF (Class): Hasharotlar — Insecta Linnaeus, 1758**

**I.Turkum (Order): Yarimqattiqqanotlilar turkumi — Hemiptera Linnaeus, 1758**

Oila (Family): Shiralar — Aphididae Latreille, 1802

Avlod (Genus): *Aphis* Linnaeus, 1758

1.Tur (Species ): Anor shirasi — *Aphis punicae* Passerini, 1863 **FA, SU**

Oila (Family): Qalqondorlar — Diaspididae Maskell, 1878

Avlod (Genus): *Lepidosaphes* Shimer, 1868

2.Tur (Species ): Vergulsimon qalqondor — *Lepidosaphes ulmi* Linnaeus, 1758 **FA, SU**

Oila (Family): Unsimon qurtlar — Pseudococcidae Heymons, 1915

Avlod (Genus): *Pseudococcus* Westwood, 1840

3.Tur (Species ): Komstok qurti — *Pseudococcus comstocki* Kuwana, 1902 **FA, SU**

Oila (Family): Oqqanotlar — Aleyroidoidae

Avlod (Genus): *Dialeurodes* Cockerell, 1902

4.Tur (Species): Sitrus oqqanoti — *Dialeurodes citri* Ashmead, 1885 **FA, SU**

Oila (Family): Qandalalar — Pentatomidae Leach, 1815

Avlod (Genus): *Halyomorpha* Mayr, 1864

5.Tur (Species): Marmar qandala — *Halyomorpha halys* Stål, 1855 **FA**

## **II. Turkum: Qattiqqanotlilar — Coleoptera Linnaeus, 1758**

Oila: Yassi mo'ylovchilar yoki plastinkasimonlar — Scarabaeidae Latreille, 1802

Avlod (Genus): *Polyphylla* Harris, 1841

6.Tur (Species): Zararli tillaqo'ng'iz — *Polyphylla adspersa* Motschulsky, 1854 **FA, SU**

Avlod (Genus): *Melolontha* Fabricius, 1775

7.Tur (Species): Mart qo'ng'izi — *Melolontha afflicta* Ballion, 1870 **FA, SU**

8.Tur (Species): Mart buzoqboshisi — *Melolontha hippocastani* Fabricius, 1801 **FA, SU**

Avlod (Genus): *Oxythyrea* Mulsant, 1842

9.Tur (Species): Chipor bronza qo'ng'izi — *Oxythyrea cinctella* Schaum, 1841 **FA, SU**

Avlod (Genus): *Tropinota* Mulsant, 1842

10.Tur (Species): Turon bug'usimon qo'ng'izi — *Tropinota (Epicometis) turanica* Reitter, 1889 **FA, SU**

Oila (Family): Qirsildoq qo'ng'izlar — Elateridae Leach, 1815

Avlod (Genus): *Agriotes* Eschscholtz, 1829

11.Tur (Species): Turkiston qirsildoq qo'ng'izi — *Agriotes meticulosus* Candèze, 1863 **FA, SU**

Oila (Family): Uzunburun qo'ng'izlar — Curculionidae Latreille, 1802

Avlod (Genus): *Scolytus* Geoffroy, 1762

12.Tur (Species): Meva po'stloqxo'ri — *Scolytus mali* Bechstein, 1805 **FA, SU**

## **III. Turkum (Order): Tangachaqanotlilar — Lepidoptera Linnaeus, 1758**

Oila (Family): Kuya kapalaklar — Pyralidae Latreille, 1809

Avlod (Genus): *Euzophera* Zeller, 1867

13.Tur (Species): Anor mevaxo'ri — *Euzophera bigella* Zeller, 1848 **FA, SU**

Avlod (Genus): *Ectomyelois* Heinrich, 1956

14.Tur (Species): Karob kuyasi — *Ectomyelois ceratoniae* Zeller, 1839 **FA, SU**

Oila (Family): Tunlamsimon kapalaklar — Noctuidae Latreille, 1809

Avlod (Genus): *Agrotis* Ochsenheimer, 1816

15.Tur (Species): Kuzgi tunlam – *Agrotis segetum* Denis & Schiffermüller, 1775  
**FA, SU**

Oila (Family): Nolidalar — Nolidae Bruand, 1847

Avlod (Genus): *Arcyophora* Guenée, 1852.

16.Tur (Species): *Arcyophora dentula* Lederer, 1869. **FA New**

**IV. Turkum (Order): Ikkiqanotlilar — Diptera Linnaeus, 1758**

Oila (Family): Yo‘g‘onoyoq chivinlar — Bibionidae Fleming, 1821

Avlod (Genus): *Bibio* Geoffroy, 1762

17.Tur (Species): Aprel pashshasi – *Bibio marci* Linnaeus, 1758 **FA**

Oila (Family): Chipor qanotlilar — Tephritidae Nyuman, 1834

Avlod (Genus): *Ceratitis* Macleay, 1829

18.Tur (Species): O‘rta Yer dengizi meva pashshasi — *Ceratitis capitata*  
Wiedemann, 1824 **FA, SU**

Oila (Family): Drozofilla pashshalar oilasi — Drosophilidae Rondani, 1856

Avlod (Genus): *Drosophila* Fallén, 1823

19.Tur (Species): Drozofilla meva pashshasi — *Drosophila melanogaster*  
Meigen, 1830 **FA, SU**

**V. Turkum (Order): To‘g‘riqanotlilar — Orthoptera Latreille, 1793**

Oila (Family): Buzoqboshilar — Gryllotalpidae Saussure, 1870

Avlod (Genus): *Gryllotalpa* Latreille, 1802

20.Tur (Species): Oddiy buzoqboshi – *Gryllotalpa gryllotalpa* Linnaeus, 1758  
**FA, SU**

21.Tur (Species): Quyruqli buzoqboshi – *Gryllotalpa unispina* Saussure, 1874  
**FA, SU**

**TIP (Phylum): Bo‘g‘imoyoqlilar — Arthropoda Gravenhorst, 1843**

**SINF (Class): O‘rgimchaksimonlar — Arachnida Lamarck, 1801**

**VI. Turkum (Order): Kanalar — Acariformes Zakhvatkin, 1952**

Oila (Family): O‘rgimchakkanalar – Tetranychidae Donnadieu, 1875

Avlod (Genus): *Tetranychus* Dufour, 1832

22.Tur (Species): Oddiy o‘rgimchakkana — *Tetranychus urticae* Koch, 1836  
**FA, SU**

Avlod (Genus): *Bryobia* Koch, 1836

23.Tur (Species): Qo‘ng‘ir meva o‘rgimchakkanasi — *Bryobia reidcorzevi* Reck,  
1947 **FA, SU**

\***Izoh:** **FA** – Farg‘ona, **SU** – Surxondaryo, **New** – ilk marta topilgan.

Faunistik tahlil natijalarining ko‘rsatishicha (1-jadval), anor agrotsenozi fitofaunasida yetakchilik qiluvchi hasharotlar Coleoptera turkumi vakillariga (7 tur) to‘g‘ri keladi. Ularning entomofaunadagi ulushi 31% ni tashkil etadi. Ushbu turkumga mansub oilalar 3 ta (18 %) bo‘lib, avlodlar soni (6 ta, 30 %) ham boshqa turkum vakillariga nisbatan ustunlik qiladi.

Anor agrotsenozlarida fitofaglik qiluvchi hasharotlarning oilalar bo'yicha taqsimlanishi tahlil etilganda, ularning 13 tasi monotipik, 2 ta oila bitipik va 1 ta oila politipik oilalardir.

1-jadval

**Anor agrotsenozi fitofaglarining turkum, oila va avlodlar bo'yicha taqsimlanishi**

Turkum nomi	Oilalar soni	Jami oilalarga nisbatan ulushi (%)	Avlodlar soni	Jami avlodlarga nisbatan ulushi (%)	Turlar soni	Fitofaglarga nisbatan ulushi (%)
Hemiptera	5	31.25%	5	23.81%	5	21.74%
Coleoptera	3	18.75%	6	28.57%	7	30.43%
Lepidoptera	2	12.5%	3	14.29%	4	17.39%
Diptera	3	18.75%	3	14.29%	3	13.04%
Orthoptera	1	6.25%	1	4.76%	2	8.70%
Acariformes	1	6.25%	1	4.76%	2	8.70%
<b>Jami:</b>	<b>16</b>	<b>100 %</b>	<b>21</b>	<b>100%</b>	<b>23</b>	<b>100%</b>

Aniqlangan turlar tarkibida anor o'simligiga ixtisoslashgan 5 tur (*Euzophera bigella*, *Ectomyelois ceratoniae*, *Aphis punicae*, *Pseudococcus comstocki*, *Tetranychus urticae*) qayd etilib, ular agrotsenozda dominantlik qiladi.

Nolidae oilasining vakili *Arcyophora dentula* Lederer, 1869 turi Farg'ona viloyati anor agrotsenozlari entomofaunasida ilk bor qayd etildi.

Anorzor agrotsenozlarida fitofag bo'g'imoyoqlilarning oilalar bo'yicha taqsimlanishi tahlil etilganda Scarabaeidae oilasidan eng ko'p turlar – jami 5 tani yoki entomofaunaning 21,7% ni tashkil etdi. Keyingi o'rinda Pyralidae va Gryllotalpidae, Tetranychidae oilalaridan 2 (8,7%) tur qayd etilgan bo'lsa, Aphididae, Diaspididae, Pseudococcidae, Aleyrodidae, Pentatomidae, Elateridae, Curculionidae, Noctuidae, Bibionidae, Tephritidae, Drosophilidae kabi oilalardan 1 tadan (4,3 %) turlar qayd etildi.

Bobning "Anor agrotsenozlari fitofaglar faunasining shakllanish xususiyatlari" nomli ikkinchi paragrafida faunaning shakllanish xususiyatlariga doir ma'lumotlar shz ifodasini topgan.

Tadqiqotlarda qayd etilgan 23 tur fitofaglarning barchasi ham anor agrotsenozining doimiy fitofaglari sanalmaydi. Fitofaglarning ayrimlari anor butasida **vaqtinchalik yashovchilar** qatoriga qo'shib, yuqori darajada zarar yetkazib ulgurmaydi, ya'ni sharoitga qarab boshqa o'simliklarga ko'chib o'tishi kuzatiladi. **Ikkilamchi zararkunandalar** qatoriga po'stloqxo'r qo'ngizlar vakillarini kiritish mumkin, chunki ular qandalalar, boshqa qattiqqanotlilar ta'sirida zaiflashgan anor butalarini shikastlay oladi. Anorning **birlamchi zararkunandalari** qatoriga Farg'ona va Surxondaryo hududlaridagi anor agrotsenozlarida keng tarqalib, dominant zararkunandaga aylanib ulgurgan anor mevaxo'ri (*Euzophera bigella*), anor shirasi (*Aphis punicae*) va komstok qurtini (*Pseudococcus comstocki*) keltirish mumkin. Ushbu fitofaglarning uchrash darajasi va populyatsiya miqdor zichligi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, ular hosildorlikka jiddiy zarar yetkazadi.

Fitofaglar miqdor zichligi, tarqalishi va anor agrotsenozlariga ta'siriga ko'ra dominant, subdominant va kam uchrovchi turlar guruhlariga ajratildi. Agrotsenozlarda uchrovchi **dominant** turlar jami 5 tani (21,7%) tashkil etadi. **Subdominant** fitofaglar 6 tur (26,08%) ni, agrotsenozda **kam tarqalgan turlar** esa 12 tur (52,17%)ni tashkil etadi.

Farg'ona va Surxondaryo viloyatlarining iqlim sharoitlaridan kelib chiqib, anor plantatsiyalaridagi zararkunandalar faunasining shakllanishi va dinamikasi fitofaglar agrotsenozlarda turli xil ekotizimlar va iqlim sharoitlariga moslashgan holda namoyon bo'ladi. Xususan, anor agrotsenozlarida fitofaglar faunasining shakllanishi bir qancha omillarga bog'liq.

**Agrotsenozdagi turlar soni va xilma-xilligi.** *Ectomyelois ceratoniae*, *Aphis punicae*, *Tetranychus urticae*, *Pseudococcus comstocki*, *Euzophera bigella* va boshqa turlar hisobiga agrotsenozda fitofaglar miqdori doimiy yuqori bo'ladi.

**Iqlim sharoiti va geografik omillar** – anor agrotsenozlarining fitofaglar faunasi ko'p jihatdan iqlim sharoitlari va geografik joylashuvga bog'liq. Harorat, namlik, yog'ingarchilik va boshqa iqlim omillari fitofaglarning ko'payishi, rivojlanishiga ta'sir qiladi.

**Issiq va quruq sharoitlar** ba'zi zararkunandalarning yashash muhiti uchun qulaydir.

**Yog'ingarchilik** anor fitofaglari faunasining shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Anor agrotsenozi fitofaglar faunasining shakllanishida **geografik joylashuv** ham muhim omillardan biri sanaladi.

**Agrotsenozda o'simliklarning turli xil bo'lishi** ham fitofaglar faunasining shakllanishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

**Iqlimning mavsumiy o'zgarishlari** fitofaglar faunasiga ta'sir qiladi. Tadqiqotlar davomida haroratning mavsum davomidagi o'zgarishlari shiralar popslyatsiya zichligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Anorzorlarda anor shirasining rivojlanishi Surxondaryoda mart oyidan, Farg'onada esa apreldan kuzatiladi. Surxondaryodja shiralarning 2-3-avlodlari rivojlanayotgan davrda Farg'onada dastlabki asoschilarning chiqishi va tirik tug'ishga o'ztishi ma'lum bo'ldi. Mavsum davomida 1 barg yoki 1 sm.kv novdadagi shiralarning oylar kesimidagi o'rtacha soni hisob-kitob qilindi.

Anor plantatsiyalarida **agrotexnik chora-tadbirlar** (yovvoyi o'tlarni yo'q qilish, tuproqni haydash, sug'orish va o'g'itlash) fitofaglar faunasi shakllanishiga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatadi.

**Biologik nazorat usullari** fitofaglar faunasini boshqarishda muhim rol o'ynaydi.

**“Anor agrotsenozi fitofaglari ekologiyasi”** deb nomlangan **to'rtinchi bob** ikkita paragrafdan iborat. “Muhim dominant turlar bioekologiyasi va agrotsenozlar bo'ylab tarqalish xususiyatlari” nomli dastlabki paragrafda dominantlarning tarqalishi va biologiyasi ifodalab berilgan.

Anor agrotsenozida *Aphis punicae*, *Pseudococcus comstocki*, *Euzophera bigella*, *Ectomyelois ceratoniae*, *Tetranychus urticae* kabi turlar dominantlik qiladi. *Lepidosaphes ulmi*, *Dialeurodes citri*, *Ceratitis capitata*, *Drosophila melanogaster*,


*Bryobia reidcorzevi*, *Arcyophora dentula* kabi turlar subdominant sifatida ro'yhatga olindi. Qolgan turlar anor agrotsenoziida kam uchraydigan turlari sirasiga kiritildi.

Anor agrotsenoziida uchrovchi fitofaglardan *E.bigella*, *E.ceratoniae*, *A.dentula*, *A.punicae*, *P.comstocki*, *D.citri*, *C.capitata*, *D.melanogaster*, *O.cinctella*, *T.urticae*, *B.reidcorzevi* kabi dominant va subdominant turlarning tarqalishi, anor butasi vegetatsiya davriga mos ravishda mavsumiy rivojlanish biologiyasi va hayotiy sikllari asoslab berildi hamda fenokalendarlari tuzildi.


Anor shirasi misolida Farg'ona vodiysi va Surxondaryo sharoitlarida fitofaglarning mavsumiy rivojlanishidagi farqlar, ularning hayot sikllarida namoyon bo'lishi ifodalab berildi (1-rasm).

*Oxythyrea cinctella* turi misolida har ikki hududdan yig'ilgan namunalar morfometrik belgilari bo'yicha qiyosiy tahlil etilgan (2-jadval).

Har bir hududning o'ziga xos iqlim sharoiti va ozuqa resurslari *O.cinctella* turining individlarida variatsiya koeffitsiyenti yuqori bo'lishi, ya'ni individlar xilma-xilligi kuchli ekanligini ko'rsatdi. Jumladan, Farg'onadan topilgan erkak numanularda tibia (boldir) uzunligi, urg'ochi namunalarda qanot uzunligi ishonchli farqlangan ( $t_f > t_{st}$ ).



A) Surxondaryo viloyati (2022-2023 yy.)



B) Farg'ona viloyati (2021-2023 yy.)

1-rasm. *Aphis punicae* Passerini, 1863 shirasining hayotiy sikli\*\*

2-jadval

Farg'ona viloyati hududi va Surxondaryo viloyatlaridan tutilgan *Oxythyrea cinctella* turining morfometrik ko'rsatkichlarining solishtirma tahlili

Morfomet-rik belgilar	Farg'ona viloyati, Quva anor agrotsenozi (n=6)					Surxondaryo viloyati, Sherobod anor agrotsenozi (n=5)					$T_{st}$
	Min	Max	$M \pm m$	$\Delta$	V	Min	Max	$M \pm m$	$\Delta$	V	
<b>Erkak individ</b>											
Tana uzunligi	7,20	10,1	8,52±0,48	1,07	12,59	8,70	9,00	8,82±0,06	0,13	1,48	
Tana kengligi	4,50	5,00	4,70±0,08	0,19	4,04	4,00	4,50	4,22±0,09	0,19	4,56	

\*\* shartli belgilar: III, IV ... - oylar; o – qishlovdan chiqqan tuxumlar,  $f_1$  – asoschilar, v – qanotli va qanotsiz urg'ochi tirik tug'uvchi shiralar avlodi; 1, 2, 3 ... - bo'g'inlar; m – migrantlar; yo'g'on chiziqlar shiralar miqdor zichligi yuqori bo'lishini anglatadi.

Mo'ylov uzunligi	2,30	3,00	2,63±0,12	0,26	9,81	1,70	2,00	1,82±0,06	0,13	7,16	
Qanot uzunligi	8,60	8,90	8,75±0,05	0,10	1,20	7,30	8,50	7,86±0,23	0,51	6,52	
